



**IQTISODIYOTDA INQIROZ VA UNING MOHIYATINI TARIXDA
KUZATILGAN INQIROZLI HOLATLAR ASOSIDA O'RGANISH.**

Gaffarov Sherbek Sheral o'g'li

*Samarqand iqtisodiyot va servis institute "bank -moliya xizmatlari" fakulteti
"moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi Mk-s 122-guruh talabasi*

Sherbek.gaffarov20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiyotda inqirozlarning mohiyati va ularning sabablari, oqibatlarini tarixiy misollar orqali o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida Buyuk Depressiya (1929–1933), 1997 yildagi Osiyo moliya inqirozi va 2008 yildagi global moliya inqirozi kabi inqirozli holatlar tahlil qilinadi. Maqolada inqirozlarning ichki va tashqi iqtisodiy omillarga bog'liqligi, ularning mamlakatlar va global tizimga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari inqirozlarni oldini olish va ularni samarali boshqarish choralarini aniqlashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: iqtisodiy inqiroz, tarixiy tajriba, moliya tizimi, global iqtisodiyot, boshqaruv strategiyalari

Аннотация: Статья посвящена изучению сущности экономических кризисов, их причин и последствий на основе исторических примеров. В исследовании анализируются такие кризисные периоды, как Великая депрессия (1929–1933), Азиатский финансовый кризис 1997 года и глобальный финансовый кризис 2008 года. Рассматривается зависимость кризисов от внутренних и внешних экономических факторов, а также их влияние на страны и глобальную экономическую систему. Результаты исследования имеют практическое значение для предотвращения кризисов и эффективного управления ими.

Ключевые слова: экономический кризис, исторический опыт, финансовая система, глобальная экономика, стратегии управления

Abstract: This article is devoted to studying the essence of economic crises, their causes, and consequences based on historical examples. The research analyzes crisis periods such as the Great Depression (1929–1933), the 1997 Asian financial crisis, and the 2008 global financial crisis. The dependence of crises on internal and external economic factors and their impact on countries and the global economic system are examined. The findings of the study are of practical importance for preventing crises and managing them effectively.

Keywords: economic crisis, historical experience, financial system, global economy, management strategies

Kirish Iqtisodiy inqirozlar insoniyat tarixida takrorlanuvchi hodisa bo'lib, ularning sabablari, oqibatlari va davolash usullari turlicha bo'lgan. Har bir inqirozning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning umumiy mohiyati iqtisodiyotning muvozanatining buzilishi va resurslarning samarali taqsimlanmasligida namoyon bo'ladi.



Iqtisodiy inqirozlar nafaqat mamlakat ichki iqtisodiy tizimiga, balki global savdo va moliya tizimlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy misollarga nazar soladigan bo'lsak, 1929–1933 yillardagi Buyuk Depressiya iqtisodiy inqirozning global miqyosdagi namunasidir. Bu davrda dunyo bo'ylab sanoat ishlab chiqarishi keskin kamaydi, ish bilan bandlik darajasi pasaydi va bank tizimi inqirozga uchradi. Shu kabi holatlar 1997 yildagi Osiyo moliya inqirozi yoki 2008 yildagi global moliya inqirozi ham iqtisodiyotning turli tarmoqlari va mamlakatlararo bog'liqligini namoyon qildi. Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi inqirozlarning mohiyati, ularning sabablari va tarixiy tajribalar asosida tahlili o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inqirozlarni oldini olish va ularni samarali boshqarish yo'llarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, iqtisodiy inqirozlar davrida mamlakatlarning qabul qilgan siyosiy va iqtisodiy choralarini ham o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism Iqtisodiy inqiroz – bu mamlakat yoki global iqtisodiyotning muvozanati buzilganda yuzaga keladigan murakkab iqtisodiy hodisa bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo, moliya tizimi va ish bilan bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inqirozlar odatda resurslarning samarali taqsimlanmasligi, investitsiya oqimlarining sustlashishi, talabning pasayishi va moliyaviy bozorlarning beqarorligi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy inqiroz nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga ham olib keladi.

Inqirozlarning mohiyati tarix davomida turlicha namoyon bo'lgan. Ba'zi hollarda inqirozlar ichki omillar – masalan, mehnat bozorining sustlashuvi yoki davlatning iqtisodiy siyosatidagi xatoliklar sabab yuzaga keladi. Boshqa hollarda esa tashqi omillar – global moliya tizimidagi notinchliklar, xorijiy investitsiyalar pasayishi yoki xalqaro savdo shoklari inqirozning boshlanishiga sabab bo'ladi.

Buyuk Depressiya (1929–1933) Buyuk Depressiya XX asrning eng kuchli iqtisodiy inqirozi hisoblanadi. U asosan AQShda 1929 yilda boshlandi va tez orada butun dunyo bo'ylab ta'sir ko'rsatdi. Depressiyaning boshlanishiga bir nechta omillar sabab bo'ldi: aksiyadorlik bozori narxining keskin tushishi, bank tizimining zaifligi, ishlab chiqarishning haddan tashqari ko'payishi va iste'mol talabining pasayishi. Natijada sanoat ishlab chiqarishi sezilarli darajada kamaydi, ish bilan bandlik darajasi keskin tushdi, qishloq xo'jaligi va sanoat sektoridagi ko'plab korxonalar yopildi. Banklarning bankrotligi esa nafaqat AQSh, balki Evropaning ayrim mamlakatlariga ham moliyaviy ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari global integratsiya darajasiga bog'liqligi aniq namoyon bo'ldi. Buyuk Depressiyaning sabablari va oqibatlari ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim dars bo'ldi. Shu davrda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, ijtimoiy himoya dasturlari va moliyaviy nazorat mexanizmlari inqirozlarni yumshatishda muhim rol o'ynashi aniqlangan.


Osiyo moliya inqirozi (1997–1998) 1997 yilda Janubi-Sharqiy Osiyoda yuzaga kelgan moliya inqirozi mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning global bozor bilan qanday bog'langanligini ko'rsatdi. Taylandda boshlanib, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya va Filippin kabi mamlakatlarga tarqaldi. Inqirozning asosiy sabablari quyidagilar edi: valyuta kursining beqarorligi, xalqaro investitsiyalarning tezkor chiqishi, moliya tizimidagi



nazoratsizlik va bank sektoridagi qarz portfellari bilan bog'liq muammolar. Natijada, ko'plab kompaniyalar yopildi, ish bilan bandlik pasaydi va aholining hayot darajasi keskin tushdi. Ushbu inqiroz shuni ko'rsatdiki, milliy iqtisodiyotlar global moliya tizimiga bog'liq va bir mamlakatdagi moliyaviy shoklar mintaqaviy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli davlatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va moliya tizimini mustahkamlash uchun o'z siyosatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi.

Global moliya inqirozi (2008²⁹) 2008 yildagi global moliya inqirozi XXI asrning eng keng ko'lamli iqtisodiy inqirozi sifatida tarixga kirdi. AQShdagi ipoteka bozoridagi qarzlarining yetarlicha qaytarilmasligi va moliyaviy instrumentlarning murakkabligi moliya tizimining qulashiga olib keldi. Natijada, dunyo bo'ylab banklar zarar ko'rdi, qimmatli qog'ozlar bozori pasaydi, ishlab chiqarish va savdo sustlashdi. Inqirozning global xarakteri shuni ko'rsatdiki, hozirgi iqtisodiyotlar bir-biriga juda bog'liq. Shu sababli moliya siyosatidagi xatolar faqat milliy iqtisodiyotga emas, balki global iqtisodiy tizimga ham ta'sir qilishi mumkin. Shu davrda qabul qilingan choralar – davlat tomonidan moliya tizimiga injeksiya kiritish, markaziy banklarning foiz stavkalarini pasaytirish va iqtisodiy stimullar – inqirozning oqibatlarini kamaytirishga yordam berdi.

3. Iqtisodiy inqirozlarning sabablari va turlari



Iqtisodiy inqirozlarni oldini olish va boshqarish

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, inqirozlarni oldini olish va ularni boshqarish uchun bir nechta samarali chora-tadbirlar mavjud:

Moliyaviy nazoratni kuchaytirish – bank tizimi va moliya bozorini tartibga solish.

Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash – davlatning iqtisodiy siyosati, soliq va budget strategiyasi orqali.

²⁹ Iqtisodiyot va sanoat vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti statistik ma'lumotlar to'plami 2021–2023. Toshkent, 2023. 240 b.



Global integratsiyaga ehtiyotkor yondashish – eksport-import, investitsiya oqimlarini nazorat qilish. Favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar – moliya tizimiga injeksiyalar, foiz stavkalarini pasaytirish, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish. Iqtisodiy inqirozlarni o'rganish orqali mamlakatlar moliya tizimini mustahkamlash, risklarni oldindan aniqlash va ijtimoiy himoya choralari tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili Iqtisodiy inqirozlarni o'rganishda bir nechta asosiy manbalar ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilgan. Shu manbalar orqali nafaqat inqirozning sabablari va oqibatlari, balki ularni boshqarish strategiyalari ham aniq ko'rsatilgan. Quyida bir nechta muhim adabiyotlar va ularning tahlili keltiriladi.

1. J. M. Keynes – *The General Theory of Employment, Interest, and Money* (1936)³⁰ Keynesning asari iqtisodiy inqirozlarni tushuntirishda markaziy o'rin tutadi. U ish bilan bandlik darajasi, talab va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi. Keynesning fikricha, inqiroz davrida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va iqtisodiy rag'batlar yaratish muhim. Ushbu manba Buyuk Depressiya davrini tahlil qilishda asosiy ilmiy nuqtai nazar sifatida xizmat qiladi. Keynesning nazariyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatga ham asos bo'lib xizmat qiladi. U iqtisodiy depressiya va bozor notinchligini oldini olishda davlatning faolligi zarurligini ko'rsatadi.

2. C. Kindleberger – *Manias, Panics, and Crashes* (1978)³¹ Kindleberger moliya bozorlaridagi inqirozlarni tarixiy misollar orqali tahlil qiladi. U moliyaviy bozorlarning spekulativ shoklarga qanday uchrashi va bank tizimining beqarorligi inqirozlarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Misollar orasida 1929 yilgi Buyuk Depressiya va boshqa tarixiy moliya inqirozlari mavjud. Ushbu manba iqtisodiy inqirozlarni tushinishda moliya tizimi va psixologik omillarning muhimligini ko'rsatadi. Kindlebergerning tadqiqotlari moliya bozoridagi risklarni boshqarish va inqirozlarni oldini olish strategiyalarini shakllantirishda foydali.

3. R. Dornbusch va S. Fischer – *Macroeconomics* (1994)³² Dornbusch va Fischer makroiqtisodiy tahlil orqali inqirozning iqtisodiyotga ta'sirini sistematik tarzda tushuntiradi. Ular global inqirozlar, valyuta kursi beqarorligi va inflyatsiya masalalarini ko'rib chiqadilar. Shu bilan birga, mamlakatlararo iqtisodiy bog'liqlikni ham tahlil qilishadi. Ushbu manba global moliya va iqtisodiy integratsiyaning inqirozlar yuzaga kelishidagi rolini ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatlar siyosiy va iqtisodiy choralari orqali inqirozlarni yumshatish imkoniyatlarini o'rganadi.

4. M. Obstfeld va K. Rogoff – *Foundations of International Macroeconomics* (1996) Obstfeld va Rogoffning asari global iqtisodiy tizimning barqarorligi va inqirozlarning

³⁰ Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. London: Macmillan, 1936. 384 p.

³¹ Kindleberger, C. P. *Manias, Panics, and Crashes: A History of Financial Crises*. New York: Wiley, 1978. 360 p.

³² Dornbusch, R., Fischer, S. *Macroeconomics*. 7th ed. New York: McGraw-Hill, 1994. 790 p.



tarqalish mexanizmlarini o'rganadi. Ular iqtisodiy shoklar va moliyaviy inqirozlarning xalqaro savdo va investitsiya oqimlariga qanday ta'sir qilishini ilmiy asosda tushuntiradi. Ushbu manba tarixiy va zamonaviy inqirozlarni solishtirish imkonini beradi. Shu orqali tadqiqotchilar milliy va global iqtisodiyotdagi inqirozlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi

5. O'zbekiston va MDH mamlakatlari iqtisodiy tahlillari O'zbek va MDH mamlakatlarida iqtisodiy inqirozlar, xususan 1990-yillardagi iqtisodiy o'tish davrida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar keng o'rganilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Iqtisodiyot va sanoat vazirligining hisobotlari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda makroiqtisodiy siyosat va moliyaviy barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Milliy tajriba inqirozlarni boshqarishda davlat mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, global integratsiya va tashqi iqtisodiy shoklarga tayyorlik muhim ekanligi aniqlanadi.

Xulosa Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozlar sabablari va oqibatlarini tushunishda tarixiy misollar va ilmiy nazariyalar birgalikda qo'llanilishi zarur. C. Kindleberger va J. Keynes kabi klassik manbalar inqirozning makroiqtisodiy va moliyaviy mohiyatini ochib beradi, Dornbusch va Rogoff esa global bog'liqlikni va xalqaro ta'sirlarni ko'rsatadi. Milliy manbalar esa, o'z navbatida, inqirozlarni boshqarishda davlat siyosatining samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Shu asosda, iqtisodiy inqirozlarni oldini olish va ularni boshqarish strategiyalari samarali shakllanishi mumkin.

Adabiyotlar ruyhati

1. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti statistik ma'lumotlar to'plami 2021–2023. Toshkent, 2023. 240 b.
2. Roubini, N., Mihm, S. Iqtisodiy inqirozlar iqtisodiyoti: moliya kelajagi haqida tezkor kurs. New York: Penguin Press, 2010. 320 b.
3. Jahon Banki. World Development Report: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, D.C., 2020. 310 b.
4. Dornbusch, R., Fischer, S. Macroeconomics. 7th ed. New York: McGraw-Hill, 1994. 790 p.
5. Obstfeld, M., Rogoff, K. Foundations of International Macroeconomics. Cambridge: MIT Press, 1996. 682 p.
6. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 10th ed. Boston: Pearson, 2019. 912 p.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Iqtisodiy rivojlanish hisobotlari [Elektron resurs]. – Tashkent, 2022. – URL: <https://www.cbu.uz>
8. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji statistik ma'lumotlar to'plami. Tashkent, 2021. 240 p.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



9. Roubini, N., Mihm, S. Crisis Economics: A Crash Course in the Future of Finance. New York: Penguin Press, 2020. 320 p.
10. Krugman, P., Obstfeld, M. International Economics: Theory and Policy. 10th ed. Boston: Pearson, 2015. 880 p.

